

NAVOIY EPIK MEROSINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

Zakirova Maqsuda Atayevna

UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *intefaol, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, aqliy hujum, bahs-munozara, epik meros, "Xamsa"*

Ma'lumki, muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta, ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Alisher Navoiy nasr va nazmda teng qalam tebratgan, har ikki yo'nalishda o'z mahoratini, iste'dodini namoyish eta olgan betakror buyuk ijodkordir. Adabiyot darsida "Navoiyning epik merosi" mavzusini o'tishda juda ko'p metodlardan foydalanish mumkin. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn

diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Mavzuni o‘tishda yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarga jadvallar, matnlar ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali samaradorlikni oshirish, mavzuni o‘zlashtirishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

“Xamsa” bo‘yicha konseptual jadval

	«Hayrat ul-abror»	«Farhod va Shirin»	«Layli va Majnun»	«Sab’ayi sayyor»	«Saddi iskandariy»
Yozilgan sanasi					
Boblari					
Baytlar soni					
Vazni					
Afoyili					
Taqte’ belgisi					

Bu metoddan har bir dostonidagi ma’lumotlarni topish va joylashtirishda ham foydalanish mumkin. “Hayrat ul-abror” dostoni misolida ham buni ko‘rish mumkin.

“Hayrat ul-abror” dostoni bo‘yicha konseptual jadval

[illegible]

Alisher Navoiy ijodidagi xilma-xil janrlarni o'rganishda "Nilufar guli" metodi juda samarali hisoblanadi. Katakchalarni o'quvchilar mustaqil tarzda to'ldirib, ularga oid ma'lumotlarni joylashtiradilar. Ma'lumotlarni aniq, izchil va mukammal joylashtirilganligiga e'tibor qaratiladi. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar, internet ma'lumotlaridan ham foydalanish tavsiya qilinadi.

Navoiy merosini o'rganish bo'yicha Nilufar guli" metodi

	Adabiyot shunoslik ka oid	

	Tilshunos likka oid	

	Tarixiy asarlari	Diniy asarlari		

Alisher Navoiyning

nasriy yo'lda yaratilgan asarlari mavzu ko'lamiga ko'ra rang-barangdir: muallif tomonidan olib borilgan turli fan sohalariga oid ilmiy kuzatishlar, tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, dinshunoslik, axloq va falsafa, siyosatshunoslik sohalariga oid bayon qilingan xulosa va dalillar, muhim ma'lumotlar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu manbalarning bugungi kun ilm-fani uchun ham nihoyatda qimmatli ekanligi navoiyshunoslikka oid manbalarda ham alohida ta'kidlangan.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Avliyoqulov N., Musayeva N. Pedagogik texnologiya. – T. : Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:

3. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2006.

Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. - Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. 51-bet.

4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. Sab’ai sayyor. - Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. 299-300-betlar.